

NEMIS TILI GRAMMATIKASIDA MAJHUL NISBAT VA STATIVNING YASALISHI

Raximov M. ¹, Umarova H. ²*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada nemis tilida mavjud bo'lgan nisbat kategoriyalari va ularning turlari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, majhul nisbatning bu turlarining yasalishi, qo'llanilishi keltirib o'tilgan. Shu bilan birga mavzuga oid bir qator tilshunos olimlarning fikr va mulohazalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: stativ tushunchasi, nisbat kategoriyasi, o'timlilik va o'timsizlik, passiv konstruktsiya, sifatdosh, ot kesim, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi.

Til taraqqiyoti rivojlanish bosqichining dastlabki davrlarida fe'llar o'timli va o'timsiz fe'llarga ajratilmagan. Davr va sharoit vaziyatidan kelib chiqib ular goh o'timli, goh o'timsiz ma'nolarda qo'llanilib, aytish joyizki, neytral fe'llar tushunchasi nomi bilan qo'llangan vaqtlar ham bo'lgan. Keyinchalik fe'l ma'nolarining dastlabki neytralligidan o'timli fe'llar ajralib chiqib fe'llar o'rtasida o'timli va o'timsiz fe'llar tushunchasini shakllantirgan. Buning natijasida fe'llar muayyan ravishda o'timli va o'timsiz fe'llarga ajraladi va obyekt munosabatlarini ifodalaydigan muhim bir ko'rinish yuzaga keldi. Ammo, ba'zi bir shunday fe'llar bugungi kunda ham ikki xil ko'rinishda qo'llanilish xususiyatini saqlab qolmoqda. Masalan, heißen fe'li atamoq yoki atalmoq kabi ma'nolarda ko'rish mumkin.

O'timli fe'llarning o'ziga xos bo'lgan xususiyati shundaki, uning majhul nisbat holatini yasay olishidadir. O'timli fe'llarning bu kabi xarakterli tomoni ularning sub'ekt va obyekt faoliyatlari o'rtasida eng yaqin aloqalarni ifodalashidir [Shubik, 1989:13]. Fe'lning o'timli ma'no tushunchasi olishi uning tushum kelishigini boshqara olishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu kelishik o'zining dastlabki hol ma'nosidan sof obyekt ma'nolarining rivoj topishi bilan belgilanadi. Ayni paytda majhul nisbat kategoriyasi shakllanib aniq nisbatning vositasiz to'ldiruvchisi majhul nisbatning egasiga aylanishiga imkoniyat yaratadi, masalan, Der Schüler schreibt einen Text - Der Text wird von dem Schüler geschriben: yoki Mirabror übersetz den Artikel bis um 10 Uhr - Der Artikel wird von Mirabror bis um 10 Uhr übersetz.

Ko'pgina tilshunos olimlar nemis tili tizimidagi nisbat tushunchasini uch turga bo'lib o'rganadilar, ya'ni, bir, ikki va uch bo'lakli majhul nisbatlar. Shu bilan birga holat passivi deb nomlangan yana bir grammatik shaklni ham mavjudligini esdan chiqarmasligimiz kerak. To'g'ri ikki bo'lakli va uch bo'lakli majhul nisbatlar juda ko'p qo'llaniladi va bunga ortiqcha ta'rif berib o'tirishni ham hojati yo'q. Biroq, bir bo'lakli majhul nisbat tushunchasi haqida biroz o'ylab ko'rish kerak. Chunki ko'pchilik tilshunoslar shaxssiz passivni bir bo'lakli majhul nisbat deb qaraydilar. Sababi majhul nisbatning bu ko'rinishda "es" olmoshi qo'llanilib, u birgina fe'ldan va to'ldiruvchidan iborat bo'ladi. Shuning uchun majhul nisbatning bunday ko'rinishini egasiz yoki shaxssiz majhul nisbat deb ataydilar. Masalan, Es wurde gelacht. Auch wurde gelacht. Es wurde geschossen. Plötzlich wurde geschossen. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, bir bo'lakli majhul nisbatning tarkibida ega vazifasini bajarayotgan "es" shaxssiz olmoshi ham rasman ega vazifasini bajarayapti. Bu holat o'z navbatida nemis tilidagi gap tuzilishining ifoda maqsadiga ko'ra ega-kesimlilik munosabatlariga qat'iy amal qilinganligini ko'ramiz. O'z navbatida bu jarayonni ikki bo'lakli majhul nisbat deyish ham adolatdan bo'ladi. Biz mulohaza qilayotgan fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, majhul nisbat so'zlovchining amaliy va bilim faoliyatida markaziy o'rinni egallaydigan sub'ekt va obyekt munosabatlarini ifodalovchi muhim til birligi sifatida xizmat qiladi. Bunday obyekt va subyekt munosabatlarini aniqlash borasidagi bir qator izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, yuqorida ta'kidlanganimizdek majhul nisbat nazariyasining asosiy muammolari bo'yicha munozarali bahslar ko'paysa ko'payadiki ammo kamaymaydi. Huddi shu masalalar qatoriga "Sein + Partizip II" konstruktsiyasini ham kiritish mumkin.

¹ Raximov Mirzali, Samarqand chet tillar instituti dotsenti

² Umarova Husnigul, Samarqand chet tillar instituti 1-kurs magistranti

Ko'pgina olib borilgan tadqiqotlar ma'lumot berilishicha nisbat konstruksiyalari matnda qo'llanilish chastotasiga ko'ra fe'llar 93 foiz aniq nisbatda, 7 foiz majhul nisbatda (jumladan 2 foiz holat passivi yoki stativda) qo'llaniladi. Mazkur ko'rsatkichga ko'ra aniq nisbat birlamchi, majhul nisbat ikkilamchi degan xulosaga kelish mumkin. Bu ko'rsatkichlar natijasida majhul nisbat o'z qiymatini pasaytirmaydi, chunki, majhul nisbatning gapdagi qo'llanilishi o'ziga xosdir[Duden 1998:172]. Boshqa nisbat shakllaridan nisbatan kamroq qo'llaniladigan shakl bu holat nisbati (stativ) bir necha nomlar bilan ataladi: holat passivi, sein + passiv, sein + Partizip II konstruksiyasi va stativ.

Grammatik adabiyotlarda sein + Partizip II konstruksiyasi sein fe'lining tegishli zamon shakli va o'timli fe'lining sifat-dosh II shaklidan yasaladi, degan ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotga ko'ra sifat-dosh II ma'no jihatdan predikativ vazifasida kelgan sifatga yaqin turadi. Biroq sifat predmetning turg'un belgisini sifat-dosh esa harakat natijasida hosil bo'lgan belgini ifodalaydi, masalan; *Das Fenster ist offen - Das Fenster ist geöffnet*.

Sein + Partizip II konstruksiyasi yoki stativ holatni muayyan faoliyatning natijasi sifatida aks ettiradi. Ammo sifat-dosh II semantik jihatdan fe'l bilan ajratilgan bo'lsa, u holda u stativning tarkibiy qismi sifatida emas sein yordamchi fe'lidan yasalgan ot kesim sifatida namoyon bo'ladi, masalan; *Der Tisch ist verrückt - Der Tisch ist vom Fenster an die Wand verrückt*.

Bugungi kunga qadar ko'pgina tilshunos olimlar orasida stativ bilan bog'liq masala yuzasidan baxslar davom etmoqda. Ba'zi tadqiqotchilar sein + Partizip II konstruksiyasini majhul nisbatning alohida bir turi deb qarashsalar[Helbig, Buscha 1988:175; Flämig 1991: 420], boshqa tilshunoslar ushbu konstruksiyani alohida nisbat sifatida qarab, uni majhullik semantikasidan farq qiladigan ham majhul nisbatga, ham aniq nisbatga zidlanish munosabatida turgan konstruksiya deb talqin qiladilar[Schendels 1988:63]. Yana bir guruh olimlar esa yuqoridagi fikrlarga zid ravishda nemis tili fe'l tizimida stativning mavjudligini inkor qilishadi. Shunga qaramay sein + Partizip II konstruksiyasida fe'llik xususiyatning saqlanishini tan olishadi[Admoni 1972: 177].

Xulosa ornida shuni aytish mumkinku, tanlangan mavzuimiz o'zining dolzarbligi va bugungi kun nemis tilshunosligining muhim muammolari qatorida bolib, nisbat kategoriyali gaplar, ularning oziga xos xususiyati shu jumladan, sein + Partizip II konstruksiyani bir qator mutaxassislar mustaqil nisbat turi sifatida e'tirof etilishi va alohida nisbat tushunchasi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq deb oylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – М.: Наука, 1973. –367с.
- [2]. Шубик С.А. Категория залога и поле залоговости в немецком языке. –Л.:Наука, 1989. –124с.
- [3]. Дуден. А.В. *Grammatik der Deutschen Gegenwartssprache.* – Mannheim/Leipzig/Wien/Zürich, 1998. Bd.4.-S. 172.
- [4]. Helbig G., Buscha J. *Deutsche Grammatik.* –Leipzig/Berlin..., 1998.-731S.
- [5]. Flämig W. *Grammatik der Deutschen.* –Berlin: Akademie Verlag GmbH, 1991: -420 S.
- [6]. Schendels E.I. *Deutsche Grammatik.* –М.: Высшая школа, 1998.-416 S.
- [7]. «Тил ва ижтимоий маданият мулоқотлар» Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Самарқанд, 2013 йил 26-27 апрель, 45-49 бетлар.
- [8]. Helbig, Buscha 1988:175; Flämig 1991: 420